

## XUSHMUOMALALIKNING SOTSIOPRAGMATIK JIHATIDAN BADIY MATNDA AKS ETISHI

**Umurova Feruza**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy matnda sotsiopragmatika va xushmuomalalikning ijtimoiy ko‘rinishlari o‘rganiladi. Badiiy matn yozuvchi va kitobxon o‘rtasida nutqiy muloqotni shakllantiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, bunda xushmuomalalik tushunchasi qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy mavqe va munosabatlarni ifodalaydi. Sotsiopragmatika yondashuvi orqali lisoniy shaxslar o‘rtasidagi kommunikativ aloqalar, ularning o‘zaro hurmat, tenglik va madaniyatli muomala kabi jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbek tilida xushmuomalalikning ijtimoiy-madaniy asoslari va uning badiiy matndagi semantik tasniflari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Sotsiopragmatika, xushmuomalalik, badiiy matn, lisoniy shaxs, ijtimoiy ko‘rinishlar, kommunikativ aloqa, ijtimoiy maqom, hurmat.

Til hodisalarini o‘rganishga qaratilgan yondashuvlarda antroposentrik tilshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichida turli fanlar bilan aloqasi muhim hisoblanadi. Jumladan, sotsiopragmatikada nutqiy birliliklarning, xususan, matnning ijtimoiy-pragmatik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb vazifalaridan biridir.

Badiiy matnda lisoniy shaxsni sotsiopragmatik aspektida tadqiq etish muammosi tilshunoslikning ikki mustaqil yo‘nalishi – sotsiolingvistika va pragmalingvistikaning umumiylarini kesishishi natijasida yuzaga keldi. Lingvopersonologiya nisbatan yangi soha sifatida tilshunoslikning turli yo‘nalishlari, xususan, psixolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika kabi fanlarni birlashtirib turuvchi lisoniy shaxs tushunchasini tadqiq qiluvchi soha sifatida shakllandi. “Lisonning tizimi ravishda kontekst bilan bog‘liqligini o‘rganish pragmatikaning vazifasidir. Turli ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning turli vaziyatlarda ma’lum pragmatik manbalardan foydalanishi sotsiolingvistik tahlil uchun ham muhimdir.[Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008].

Bundan sotsiopragmatikaning tadqiq obyekti sotsiolingvistika va pragmalingvistikaning kesishgan umumiylarini ekanligini anglab olishimiz mumkin.

Bizga ma’lumki, “til birliklarining nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadigan xususiyatlari, kommunikatsiyaning nutq ishtiroychilarini maqsadi bilan bog‘lanishi, muloqot jarayonida tanlanadigan nutqiy akt turlari, muloqot shakllarini o‘rganish pragmalingvistikaning markaziy masalalari hisoblanadi”

[X.Yo'ldosheva. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi. Qarshi. –B. 109.]

Shunday ekan, kommunikatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni pragmalingvistika o'rghanar ekan, shaxsning gendir jihatdan farqlanishi, ijtimoiy sifatlari bilan ham ish ko'rishi tabiiy hol. Chunki, "pragmalingvistika sohasi uchun so'zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat, sotsiolingvistika uchun til va nutqning shakllanishidagi sotsial faktorlarning ta'siri asos qilib olinsa-da" [Хакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. ...д-ри. дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 87], ko'p hollarda ularni bir-biridan keskin farqlashning iloji yo'q. Shu jihatdan nutqni uni yaratuvchi shaxsga xos ijtimoiy sifatlar, ijtimoiy voqelik, muloqot muhitini bilan bog'liq holda o'rghanish sotsiopragmatik jihatdan nihoyatda muhim.

Sotsiopragmatikaning shakllanishida J.Lich, G.Kasper, P.Braun, S.Levinson, J.Yulilarning o'rni bo'lakcha. 1987-yilda nashr etishgan xushmuomalalik tamoyiliga bag'ishlangan maxsus risolalarda P. Braun va S. Levinson «Sotsiolingvistika pragmatikaga tadbiq etilishi lozim» degan shiorni olg'a surishdi.[Brown P., & Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Use.- Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - P.281].

Blum-Kulka fikricha, madaniyatlararo pragmatika tahlilning ikkita yondashuvidan foydalanadi. Leech fikriga ko'ra, bu yondashuvlar: pragmalingvistika va sotsiopragmatika. Ular Lich tomonidan quyidagicha ta'riflangan: Ijtimoiy-pragmatika pragmatikaning sotsiologik interfeysidir. Bu fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, sotsiopragmatika - bu standart yondashuvdan foydalanadigan pragmatik tadqiqot. Sotsiopragmatika sotsiologik va pragmatik interfeys degan ma'noni anglatadi. Bu ishtirokchilarining kommunikativ harakatlarini talqin qilish va bajarish asosidagi ijtimoiy idrokni anglatadi. [X.Yo'ldosheva. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi. Qarshi. -B.27].

So'nggi yillarda badiiy matnning sotsiopragmatik xususiyatlarini o'rghanishga e'tibor qaratila boshlandi. Chunki, badiiy matn yozuvchi va kitobxon o'rtasida, yozuvchi va personaj o'rtasida nutqiy muloqotni hosil qiluvchi vosita sifatida ham ahamiyatlidir. Shu sababli, har qanday badiiy matn turli ijtimoiy tiplar o'rtasidagi kommunikativ aloqa ko'rinishlari, tilning muayyan sotsial guruhlari muloqotida namoyon bo'lgan ijtimoiylik xususiyatlarini o'rghanishda sotsiopragmatikaning tadqiq obyekti bo'la oladi.

Nutqiy muloqot jarayonida kommunikativ akt ishtirokchilari quyidagi nuqtayi nazardan tahlil qilinadi: 1. So'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy mavqeyi. 2. Ularning ijtimoiy roli.

O'zbek tilshunosligida lisoniy shaxs tiplari D.Niyazova tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqotchi O'.Hoshimov asarlari misolida lisoniy shaxs tiplari, ularning ifodalanishida leksik birliklarning o'rni maslasiga e'tibor qaratgan[ Ниязова Д. Бадиий матнда лисоний шахс типлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс автореф. – Карши, 2020]. Badiiy matnlarning sotsiopragmatik xususiyatlari

X.Yo'ldosheva tomonidan o'rganilgan bo'lsa, [ Ниязова Д. Бадиий матнда лисоний шахс типлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс автореф. – Қарши, 2020].

E.A'zam kinoqissalari tilini sotsiopragmatik aspektda M.Xolmurodova tadqiq qilgan. [Холмуродова М. Эркин Аъзам киноқиссалари тилининг соционпрагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. – Андижон, 2021].

Xushmuomalalik tamoyilining ijtimoiylik xususiyatlarini keng miqyosda o'rganilishi natijasida sotsiopragmatika mustaqil tadqiq sohasi sifatida shakllandi. Badiiy matnida xushmuomalalik kategoriyasining sotsiopragmatik tahlili tamoman o'zgacha talqinga ega. Doimo, "xushmuomalalik" tushunchasi etiket, odob normalari bilan bog'liq holda o'rganilgan va bir shaxsnинг ikkinchisiga nisbatan e'tibor bilan yondashuvi anglashilgan. Tadqiqotimizda xushmuomalalikning ijtimoiy yo'naltirilgan tomoni sotsiopragmatika tomonidan o'rganildi.

O'zbek tilhunosligida badiiy matnning sotsipragmatik tadqiqin Xolida Yo'ldosheva tomoni o'rganilgan bo'lsada, mazkur tadqiqotda badiiy matnida lisoniy shaxsnинг sotsiopragmatik xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Ammo tadqiqotchi adresatning matn qabul qilishdagi ijtimoiy maqomlari haqida to'xtalar ekan, "adresat badiiy matnni mutolaa qilish yoki o'qilayotgan matnni eshitishi jarayonida uni idrok qiladi. Bunda u matnni idrok etuvchi shaxs maqomida bo'lib, kitobxon lisoniy shaxsi darajasiga ko'tariladi. Kitobxon lisoniy shaxsi tushunchasi matn yarata olish qobiliyatiga ega bo'lgan hamda yaratilgan matnni o'qib yoki eshitib, uni idrok eta oluvchi shaxsga nisbatan ishlataladi" deya ta'rif beradi.[Yo'ldasheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filol. fan. dok (DSc) diss. avtoref. – Qarshi, 2023. –70.]

Badiiy matnida xushmuomalalikning sotsiopragmatik hodisa sifatida o'rganar ekanmiz, uning semantik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Badiiy matnida xushmuomalalik omili sifatida hurmat va muloyimlikni ifodalash. Badiiy matnida xushmuomalalik tushunchasi qahramonlar o'rtasidagi hurmatni, ijtimoiy mavqe farqlarini va insoniy munosabatlardagi e'tiborni ko'rsatadi. Qahramonlar o'zaro muloyim gaplar va xushmuomala tilda gapirganida, bu ularning o'zaro hurmati va suhbatni madaniyatli tarzda olib borishini anglatadi.

2. Badiiy matnida xushmuomalalik bilan birga tenglik va ijtimoiy mavqeni ko'rsatish. Bu xushmuomalalik vositasi bo'lib, qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy va madaniy tenglik yoki tengsizlikni ifodalashi mumkin. Masalan, "siz"lash og'zaki va yozma nutqda hurmatni ifodalaydi. Lekin tengdoshlar yoki do'stlar o'rtasida samimiyoq va norasmiy usullar qo'llanilishi mumkin. Bu semantik jihatdan ijtimoiy mavqeni belgilab beradi.

3. Badiiy matnida xushmuomalalik asosida ziddiyat va murosaga erishish. Xushmuomalalik ko'pincha ziddiyatli vaziyatlarda murosaga erishish vositasi sifatida semantik yukga ega. Qahramonlar qattiq bahs yoki keskin vaziyatda xushmuomalalikni saqlash orqali ziddiyatni yumshatishga harakat qiladi. Bu hodisa

badiiy matnda nizolarni bartaraf etish yoki ularni tinch yo‘l bilan hal qilishning bir ko‘rinishi bo‘lib xizmat qiladi.

4. Badiiy matnda madaniy qadriyatlarning ifodasi. Semantik jihatdan xushmuomalalik milliy va madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Masalan, o‘zbek adabiyotida keksalarni hurmat qilish, kattalarga “siz” deb murojaat qilish yoki yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash muhim axloqiy tamoyillardan biri bo‘lib, bu xushmuomalalikda namoyon bo‘ladi. Bunday madaniy qadriyatlar badiiy matnda qahramonlarning nutqi orqali aks ettiriladi.

5. Hissiyotlarni yashirish va nazorat qilish. Xushmuomalalik qahramonlar o‘z ichki hissiyotlarini nazorat qilishni yoki yashirishni ifodalashi mumkin. Masalan, qahramonlar o‘z g‘azabi yoki ranjishlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamasdan, muloyimlik bilan gaplashish orqali o‘z his-tuyg‘ularini yashirishlari mumkin. Bu semantik jihatdan kutilmagan yoki yashirin ma’nolarni yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda xushmuomalalik o‘ziga xos semantik yukga ega bo‘lib, ziddiyat va murosa jarayonlarida, madaniy qadriyatlarning ifodasida hamda qahramonlarning hissiyotlarini yashirish va nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday xushmuomalalik ziddiyatlarni yumshatish, murosaga erishish vositasi sifatida xizmat qilib, qahramonlarning madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, qahramonlar muloyimlik orqali o‘z ichki his-tuyg‘ularini yashirishga va nozik ifoda shakllarini yaratishga intilishadi. Shu bilan birga, xushmuomalalikning mazkur rollari badiiy asarda yanada boy va chuqur semantik qatlamlarni yaratib, o‘quvchini turli madaniy va axloqiy qirralarni tushunishga undaydi.

### **FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:**

1. Niyazova D. Badiiy matnda lisoniy shaxs tiplari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2020.
2. Yo‘ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati – Qarshi, 2023.
3. Xolmurodova M. Erkin A’zam kinoqissalari tilining sotsiopragmatik aspekti: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – Andijon, 2021.
4. Safarov Sh. Pragmalinvistika – Toshkent: O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2008.
5. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. doktori (DSc) dissertatsiyasi – Toshkent, 2001.
6. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
7. Brown P., & Levinson S. Universals in Language usage: Politeness phenomena. – London, 1978. – 345 p.